

ABDULLA ORIPOVNING IJODIY MEROSINI O'RGANISH

To'xtamurodova Nafisa Salim qizi

Qarshi Davlat Pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Oripovning ijodiy merosini o'rganishning dolzarb masalalari va ularning tahlili, shuningdek Abdulla Oripovning ijodi va she'riyat olamida tutgan o'rni, she'rlaridagi chuqur ma'no va Abdulla Oripovning so'z qo'llash mahoratini qalamga oldik. Shuningdek shoir she'rlarining imotsionalligi va ta'sirchanligini tahlil qilib o'tdik. Shuningdek Abdulla Oripovning tarjima faoliyati va adabiy aloqalarga qo'shgan hissasini qalamga oldik.

Kalit so'zlar: Abdulla Oripov, ijodiy yo'l, she'riyat, adabiy me'ros, badiiy mahurat, tarjimalar

Аннотация: В данной статье мы написали актуальные вопросы изучения творческого наследия Абдуллы Орипова и их анализа, а также место Абдуллы Орипова в мире поэзии и творчества, глубокий смысл его стихов и мастерство употребления слова. Мы также проанализировали эмоциональность и воздействие стихов поэта. Мы записали вклад в отношения.

Ключевые слова: Абдулла Орипов, творческий путь, поэзия, литературное наследие, художественное мастерство, переводы.

Abstract: In this article we wrote about the current issues of studying the creative heritage of Abdulla Oripov and their analysis, as well as the place of Abdulla Oripov in the world of poetry and creativity, the deep meaning of his poems and the mastery of the use of words. We also analyzed the emotionality and impact of the poet's poems. We recorded the contribution to the relationship.

Key words: Abdulla Oripov, creative path, poetry, literary heritage, artistic mastery, translations.

O'zbek she'riyatiga o'zining qaynoq asarlari bilan kirib kelgan O'zbekiston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov o'zining serqirra va teran ijodi bilan nafaqat o'zbek adabiyotida, balki millatning ma'naviy hayotida ham chuqur iz qoldirdi. Uning she'riyati, dostonlari va publitsistik asarlari xalqning dard -u hasratlari, orzu umidlari, milliy g'ururi va vatanparvarlik tuyg'ularining yorqin ifodasi bo'lib kelgan. Abdulla Oripovning ijodiy merosini o'rganish bugungi kun adabiyotshunosligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijodining asosiy yo'nalishlari va mavzulari: Abdulla Oripov ijodini bir nechta asosiy yo'nalish va mavzularga bo'lish mumkin:

*Vatanparvarlik va milliy o'zlikni anglash:

Shoirning ko'plab she'rlarida Vatan tuyg'usi, ona yurtga muhabbat, milliy tarix va madaniy merosga hurmat baland ovozda yangraydi. "O'zbekiston", "Ona yurt", "Turkiston", "Men nechun sevaman O'zbekiatonni" ka'bi she'rlari bunga yaqqol misol bo'la oladi. U o'zbek xalqining boy tarixi, uning mashhur siymolari bilan faxrlanadi va bu tuyg'ularni o'quvchi qalbiga singdirishga intiladi. Shoir va jamoat arbobi, O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning «Tilla baliqcha», «Men nechun sevaman O'zbekistonni» singari dastlabki she'rlari talabalik yillarida yozilgan va o'zbek she'riyatiga yangi, iste'dodli, o'ziga xos ovozga ega shoirning kirib kelayotganidan darak bergan. Ko'p o'tmay, «Mitti yulduz» (1965) ilk she'rlar to'plamining nashr etilishi she'riyat muxlislarida paydo bo'lgan shu dastlabki tasavvurning to'g'ri ekanligini tasdiqlagan. Shundan keyin shoirning «Ko'zlarim yo'lingda» (1966), «Onajon» (1969), «Ruhim», «O'zbekiston» (1971), «Xotirot», «Yurtim shamoli» (1974), «Yuzma-yuz», «Hayrat»

(1979), «Najot qal'asi» (1981), «Yillar armoni» (1983), «haj daftari», «Munojot» (1992), «Saylanma» (1996), «Dunyo» (1999), «Shoir yuragi» (2003) singari she'riy kitoblari nashr etilgan.

Men nechun sevaman O'zbekistonni" she'ridan parcha tahlil qilamiz :

Xalqim, tarix hukmi seni agarda,
Mangu muzliklarga eltgan bo'lsaydi,
Qorliklarni makon etgan bo'lsayding,
Mehrim bermasmidim o'sha muzlarga?

Ushbu she'rda shoir avvalo o'ziga savol beradi bu savol faqat ijodkorninggina emas har bir o'quvchining ,har bir yurt farzandining o'ziga bergan savoli bo'lishi kerak. Bunda shoirimiz nechun vatanni tanho ataymiz, aslida dunyoda tanho narsa nima deydi:

Aslida dunyoda tanho nima bor?
Paxta o'smaydimi o'zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir quyoshli-ku, butun Osiyo
Yoki tuprog'i tanhomi deydi

Abdulla Oripov she'rlaridagi beaded samimiyat, tuyg'ular chinligi kishini beixtiyor o'ziga asir qiladi. Shoir she'rlari kayfiyat va hissiyotning yaxlit obrazlaridir. U inson tuyg'ularini, hissiyotini shu qadar chuqur bilgani va ifoda eta olganidan butun she'r emas, balki ayrim misralarning o'ziyoq she'rxonda muayyan kayfiyat hosil qiladi".[1]

Badiiy mahoratni o'rganish:Abdulla Oripov o'zbek she'riyatining an'anaviy shakllarini zamonaviy ruh bilan uyg'unlashtirish katta mahorat ko'rsatgan. Uning poetik uslubi, til boyligi va obrazlilik san'ati o'rganishga arziydi.

Shoirimiz tarjimonlik sohasida ham o'zini sinab ko'rdi va ko'plab asarlar tarjima qilishga erishdi desak xato bo'lmaydi. Abdulla Oripov Dantening "Ilohiy komediya" asarini, Nekrasov, Lesya Ukrainka, T. Shevchenko, K. Kuliyeu kabi dunyoga mashhur yozuvchilarning asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Shu o'rinda shuni ham aytib ketishimiz joizki ,2015-yilda Oripov Italiya yulduzi ordeni bilan taqdirlangan. Ordenni Oripovga Italiya prezidenti Serj Sotarelloning maxsus taklifiga binoan topshirilgan.

*Badiiy mahoratni o'rganish:Abdulla Oripov o'zbek she'riyatining an'anaviy shakllarini zamonaviy ruh bilan uyg'unlashtirish katta mahorat ko'rsatgan. Uning poetik uslubi,til boyligi va obrazlilik san'ati o'rganishga arziydi."Abdulla Oripov she'riyatidagi xalq qalbiga yaqinlik, xalq dilidagi quvonch va shodlik, armon va dardlarni topib so'ylash, insonning rangin tuyg'ularini rassomona ko'z bilan ilg'ab, musiqiy misralarda ifodalash, uning she'riyatidagi badiiy haqqoniyat uyg'unligi-shoir she'rlarining takrorlanmas, o'ziga xos xususiyatlaridandir". [2]

Xulosa: Abdulla Oripovning ijodiy merosi o'zbek xalqining bebaho ma'naviy xazinasini hisoblanadi .Shoirning betakror so'zi hamisha qalbimizdan joy olib,uni ezgulikka, vatanparvarlikka va yuksak ma'naviyatga chorlab turaveradi.Abdulla Oripovning boy va serqirra ijodiy merosi o'zbek adabiyoti va madaniyatining bebaho qismidir. Uning she'riyati, dostonlari va publitsistikasi orqali millatning o'tmishi, buguni va kelajagi o'zining yorqin ifodasini topgan. Shoirning vatanparvarlik, insonparvarlik, muhabbat va sadoqat kabi oliyjanob

tuyg'ularni teran ifoda etishi, ijtimoiy muammolarga befarq bo'lmashligi uning ijodini hamisha dolzarb va qadrlidir.

Abdulla Oripovning poetik mahorati, tilining boyligi va obrazlilikining yuksakligi uning asarlariga alohida joziba bag'ishlaydi. U o'zbek she'riyatining an'anaviy shakllarini zamonaviy ruh bilan uyg'unlashtirish orqali o'ziga xos uslub yaratdi.

Bugungi kunda Abdulla Oripovning ijodiy merosini o'rganish nafaqat adabiyotshunoslar uchun, balki keng jamoatchilik, ayniqsa yosh avlod uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Uning asarlari yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, ularning ma'naviy olamini boyitishda va estetik didini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Shunday ekan, Abdulla Oripovning betakror ijodiy merosini chuqur o'rganish, uni kelgusi avlodlarga yetkazish va uning g'oyalarini hayotga tatbiq etish – barchamizning muhim vazifamizdir. Shoirning so'zlari hamisha xalqimiz qalbidan joy olib, uni yuksak maqsadlar sari yetaklashda davom etaveradi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev Qozoqboy, Qodirov Valijon, Yo'ldoshbekov Jalolbek Adabiyot. 9-sinf uchun darslik. Abdulla Oripov she'riyati. Toshkent: „O'zbekiston“ NMIU -2019
2. Raupova Orasta Ikrom qizi "Shoir she'rlarining o'ziga xos xususiyatlari" maqola. Science and innovation international scientific journal - 2022
3. Sharafiddinov O. She'riyat – qalb yolqini. „Hayot bilan hamnafas“ kitobida. Toshkent. Adabiyot va san'at nashriyoti. 1984.
4. Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. -T.: „O'qituvchi“, 1999.
5. Qo'shjonov M., Suvon M.. Abdulla Oripov. Toshkent: „Ma'naviyat“, 2000
6. O'z. Resp. Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev Odamlar yaxshi yashashi uchun zarur sharoit yaratish - barcha rahbarlarning asosiy vazifasidir. "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 28-fevral.
7. To'xta Boboyev. "Adabiyotshunoslikka kirish asoslari", 41-bet